

O'ZBEK XALQI OILAVIY MAROSIMLARINING AXLOQIY VA ESTETIK YUKSALISHIDA MA'NAVIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

*Komilov Ro'zi Rabihevich
Samarqand davlat chet tillar
instituti professori v.v.b.
falsafa favlari doktori (DSc)*

Annotatsiya: Maqolada xalqimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelayotgan nikoh marosimlarining axloqiy va estetik yuksalishida ma'naviy meros va qadriyatlarning ahamiyati falsafiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rta ga tashlangan. Bundan tashqari jamiyatning eng muhim hujayrasi hisoblangan oila mustahkamligida nikohning o'rni va uning axloqiy hamda estetik tomonlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Oila, nikoh, ma'naviy qadriyatlар, urf-odat, ma'naviy uyg'onish, o'zbek oilasi, ma'naviy hayot, madaniyat, xulq-atvor, nikoh to'yи, o'zbek to'ylari.

Ma'naviy qadriyatlар har bir davlatning milliy o'zligini anglashi jarayonida birinchi galdeg'i buyuk xazina sanaladi. Biron-bir davlat o'z xalqi ongida ma'naviy va estetik qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o'zining yorqin kelajagini tasavvur eta olmaydi. Mana bir necha ming yillardiki o'zbek xalqining madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi sharq xalqlari qolaversa butun dunyo ahli uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Yurtimiz istiqlolga erishgach xalqimizning ma'naviy hayotimizda tub milliy va mafkuraviy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan yaratib qoldirilgan, qadrlashga arziydigan ilmiy va ma'naviy merosimizni xolisona o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Ming yillar davomida o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan nikoh marosimlarimizning axloqiy va estetik jihatlari jahonda o'zligini qaytadan namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Jamiyatning barcha bo'g'inlarida milliy va ma'naviy qadriyatlar o'zining mafkuraviy ko'rinishlarini ajdodlarimiz yaratgan yuksak axloqiy va estetik ideallar bilan namoyon eta boshladi. Ayniqsa, tarixan shakllangan va insoniyatga xizmat qilgan qadriyatlarimiz orasida umuminsoniy qadriyatlarga keng yo'l ochildi. Umuminsoniy qadriyatlar sirasiga aslida ma'lum bir axloq me'yorlari, ilg'or taraqqiyparvar madaniy meroslar kiradi. Umumbashariy qadriyatlar xalqlarning, elatlarning milliy madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, axloqiy boyliklaridan tarkib topib, eng ezgu insoniy fazilatlarni o'zida jamlaydi[1]. Ana shunday milliylik va umuminsoniylik mujassam bo'lgan ma'naviy qadriyatlarimiz bugungi kunda yoshlarimizni komil insonlar qilib tarbiyalashda, qolaversa O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarni bir maqsad sari birlashtirishda muhim falsafiy dunyoqarashni o'zida aks ettiradi.

O'zbek milliy nikoh marosimlarining axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketganligi qariyb uch ming yillik tarix bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayon bugungi kunda "Avesto"dan tortib, Islomgacha bo'lgan axloqiy va estetik ideallarga boy marosim va an'analarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, Islom dini bilan bog'lanib ketgan o'zbek nikoh marosimlari xalqimizning mehnatsevarligi, bolajanligi, mehmono'stligi, olijanobligi, insonparvarligi, bag'rikengligi kabi axloqiy jihatlarni o'zida namoyon etadi. Xalqimiz o'zlarining nikoh to'ylarida asosan bir-birlariga yaqin, o'zları mansub jamoada, vatanga nisbatan tarixan tarkib topgan, o'zi tug'ilib o'sgan go'shada nishonlashni xush ko'rishadilar. Nikoh marosimlaridagi axloqiy tushunchalarda yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha'n (or-nomus), baxt,adolat, ideal kabilar ilgari suriladi. Nikohda insonning oila, jamiyat, xalq manfaatlarini anglab qilayotgan har qanday xatti-harakati yaxshilik kategoriysi nuqtai-nazaridan baholanadi. Burch kishining Vatan, xalq, jamoa, oila bilan o'zaro munosabatlarida o'z oldidagi majburiyat va mas'uliyatni sezishi, ularga nisbatan sadoqatini ifodalaydi[2].

Xalqimizning nikoh marosimlaridagi etnik, madaniy va diniy birligi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo xalqlari g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari bilan tutashgan

va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib kelgan. Xalqimizga xos bo'lган sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylangan. Hatto bu hududlarni istilo qilgan xalqlar ham millatimizning qimmatbaho an'analarini, shu hududda mavjud bo'lган davlatchilik an'analarini avaylab qabul qilganlar. Mana shunday beba ho qadriyatlarimizning yashovchanligini taminlovchi maskan bu albatta oila bo'lib, uning zaminida insoniy munosabatlari, xalq ma'naviyati yotadi.

Markaziy Osiyo xalqlarida oila shunday bir ijtimoiy institutki, unda turli jinsdagi odamlar nikoh deb atalmish ittifoqqa birlashadi va bir-biriga turmushning umumiyligi va o'zaro javobgarligi bilan bog'liq bo'ladi.

Har bir davlatda sog'lom axloqli, ruhiy yetuk, ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarni tarbiyalash, uning farovon hayot kechirishini ta'minlash, ayniqsa, milliy nikoh marosimlarini qadrlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'lدا jahon xalqlari o'zlarining o'ziga xos bo'lган urf-odatlari, qadriyatlarini kelajak avlod ongutafakkuriga singdirishga doimomilliy qadriyatlar asosida e'tiborini qaratib kelganlar. Bizning yurtmizda esa bu ishda avvalo oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab va mahallaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Mamlakatning kelajagi bo'l mish yoshlarning dunyoqarashi, e'tiqodi va xarakteri dastavval oilada shakllanishini hisobga olib, davlatimiz oilaga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlarda bu masalaga alohida munosabat bildirib kelmoqdalar. Shu sabab azaldan oilaning farovonligiga alohida e'tibor berib kelingan.

Shuni alohida aytish joizki, hozirgi davrdagi oilaviy munosabatlarni to'g'ri shakllantirish borasida ota-onaning oiladagi o'zaro munosabatlari asosiy o'rinni egallyaydi. Oilada ota – onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatda hamjihatlik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, shirinsuxanlik, bir-biriga g'amxo'rlik kabi sifatlar, yosh avlodni maqsadga munosib tarzda tarbiyalashda samaradorlikni oshiruvchi usullardan biri bo'lib, taqlid qilish borasida yaxshi namuna hisoblanadi. Chunki bola tarbiyasida

oilaviy muhitning roli katta ekanligini unutmasligimiz darkor. Bu esa, ko'pincha oilaning kelajagiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Oila muhiti – bu oila a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarining yig'indisi va kattalarning ijobjiy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasi bo'lib, katta yoshdagi kishilarning har taraflama olib borgan tarbiyaviy ishi natijasidir. Oiladagi barqarorlik, totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, kelishuvchanlik kabilalar ota-onalar bilan farzandlar va boshqa oila a'zolari o'rtasida qaror topadigan ruhiy muhit bo'lib, ularning kamolotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi[3].

Oila qurish nikohga asoslangan bo'lib, uning a'zolari qondosh aloqalar orqali bir-biriga bo'g'langan, oila qarindoshlari, ya'ni ularning barchasini, hayot bo'lganlarni, vafot etganlarni, uzoq va yaqinlarni, ma'lum va no'malumlarni birlashtiradi.

Oilaning mavjud bo'lish shartlaridan biri bu oiladagi o'zaro munosabatlardir. Bolalarning dunyoga kelishi va tarbiyalanishi, xo'jalik yuritilishi, oilaning barcha a'zolari manfaatlarini qanday qondirayotganligi, o'zaro tushunish, hurmat, qo'llab-quvvatlash, tushunish – bularning barchasi oilaning ichidagi o'zaro munosabatlarni tashkil qiladi. Shuningdek, qarindoshlarning salomatligi, xarakteri va qilmishi ham oiladagi o'zaro munosabatlarni shakllantiruvchi omillar hisoblanadi[4].

Jamiyatning eng muhim hujayrasi hisoblangan oila nikohdan boshlanadi. Oila qancha sog'lom, to'q va mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shuncha sog'lom, tinch va farovon rivojlanadi. Shuning uchun nikoh ibtidoiy jamiyat davridan boshlab maxsus urf-odat orqali oilaning bardam va mustahkam bo'lishiga qaratilgan jamoatchilik tomonidan nishonlanib, dastavval odat, keyinchalik yozma tarzda qonunlashtirilgan marosimdir. Oilaviy va ommaviy bayram va sayillarda o'tkaziladigan qadimiy marosimlar ham nikoh masalalarini hal qilishga, masalan, yoshlarni bir-biri bilan uchrashtirib, o'zaro tanishtirish va yaqinlashtirishga qaratiltan, yigit-qiz aytishuvlari, sumalak-bazmlari, gul va olma hadya qilish kabi yoshlarning bahor o'yin va sayillari yangi oila yaratishga xizmat qilib kelgan. Afsuski, biz keyingi vaqtlargacha nikohni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan islom odatlari bilan bog'lab, uni faqat feodal patriarxalchilik

tuzumi sarqitlari deb kamsitib kelganmiz. Nikoh har bir xalqning ezgu niyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan eng ajoyib va go'zal marosimlardan hisoblanadi. Hatto islom ham o'z aqidalarida erkak va ayol orasidagi ijtimoiy tengsizlikni patriarchal tuzum asosida qonunlashtirgan nikoh masalalarida ota huquqini avtoritar qonun-qoidalariga bo'ysundirgan bo'lsada, Markaziy Osiyoda qadimdan odat bo'lib kelgan qiz-yigitlarning o'zaro uchrashuvlari, erkin sevgi, muhabbat tuyg'ularini izhor qiladigan milliy urf-odatlarni man qilmagan edi. Aksincha, barcha qiz-yigit aytishuvlari, yor-yorlarni xalq ijod qilgan an'anaviy nikohni va u bilan bog'liq qadimiy udumlarni biroz islomlashtirishga majbur bo'lган. Islom dini to'la hukmronlik qilgan Buxoro va Xiva xonliklarida ham o'zbek va tojik aholisi orasida nikoh marosimi bilan bog'liq rasm-rusmlarda, ayniqsa to'y paytida yigit-qizlarga ancha erkinlik berilgan[5]. Bunday milliy ko'rinishlar yoshlarimizning yuksak axloqiy va estetik qadriyatlarga rioya qilgan holda faoliyat olib borishiga xizmat qilishi lozim.

Nikoh – bu erkak va ayol o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tarixan o'zgarib turadigan ijtimoiy shaklidir. Bunda nikoh nafaqat ularning jinsiy hayotini tartibga soluvchi ijtimoiy institut, balki oila qurish, bolani dunyoga keltirish va uni tarbiyalash maqsadida er-xotinlik, qarindoshlik huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi huquqiy institutdir.

O'zbek oilasining dunyodagi boshqa xalqlar oilalariga o'xshash tomonlari ko'p. Shu bilan birga uning o'ziga xos jihatlari ham yo'q emas. Ota-bobolarimizning azaliy tushunchalari bo'yicha nikoh – ilohiy ahd, oila – muqaddasdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'zbek milliy nikoh marosimlari o'zining estetik ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Chunki o'zbek nikoh marosimlari xursandchilikka asoslangan bo'lib, unda shodiyonalik, ko'tarinkilik kayfiyatini his qilish mumkin. Nikoh yoshlik, go'zallik, kelajakka yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o'tkaziladigan ajoyib oilaviy bayramdir. G'oyat go'zal bo'lган bu marosim barcha xildagi xalq san'ati, ashula, raqs bilan o'tkaziladi. U aslida asrlar osha sinovdan o'tgan mohiyatan chuqr o'ylangan, milliy asosda nishonlanadigan marosim hisoblansada, har bir davrda

takomillashib, muttasil boyib kelgan. Albatta, ayrim etnik guruhlargina emas, hatto har bir qishloq, tuman yoki viloyat ham an'anaviy to'yning o'ziga xos elementlariga ega bo'lishi mumkin. Lekin o'zbek to'ylarining bo'lib o'tishi deyarli hamma joyda bir xil. Ammo ularning urf-odat va marosimlaridagi farqli jihatlar esa ajdodlardan avlodlarga o'tib keluvchi muhim ma'naviy qadriyatlar sifatida e'zozlanishi bilan umrboqiyligini namoyon etadi.

An'anaviy to'ylarda amal qilinadigan ayrim urf-udat va marosimlar nafaqat xursandchilik va shodiyonalik bo'libgina qolmay, balki muayyan maqsadga qaratilgan rasm-rusmlardan ham iborat. Masalan, hozirgacha ko'pgina to'ylarda o'tkaziladigan odatlardan qudalarga oq o'ratisht, to'qqiz tortar, kelin kuyovga, qudalar va qavmu qarindoshlarga falon sidra sarpo qilish, dasturxonga solinadigan non-patirlarning soni, isiriq tutatish, kelinning olov atrofidan aylanishi (Farg'ona vodiysida kelinli ko'shana aravani olov ustidan, Toshkent va Xorazmda o'tga yaqin keltirib yoki aylantirib o'tkazish), kuyov tizzasiga o'g'il bolani o'tqazish, kelin-kuyov ustiga pul-chaqa va shirinliklar sochish, ularni ko'zguga qaratish va tuxum yegizmoq kabilar garchi o'z mohiyatini yo'qotsa-da, qadimdan muayyan maqsadda o'tkazilib kelinayotgan irimlardir. Ko'p joylarda (Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyati) qishloq yoki mahallaga katta osh bergach nikoh bazmi do'stu-birodar, qavmu-qarindoshlar ishtirokida alohida o'tkaziladi. Hozirgi nikoh to'ylari (bazmi) asosan restoran yoki kafelarda, maxsus ajratilgan nikoh uylarida yoki hovlilarda nishonlanadi[6].

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining milliy nikoh marosimlarini o'tkazish har bir hudud va har bir xonodon uchun qadimdan shakllanib kelgan urf-odat va marosimlar asosida yangidan qurilayotgan oila uchun ma'naviy qadriyatlar uchog'i sanaladi. Bunday hayotbaxsh axloqiy va estetik qiyofani o'zida mujassam etgan nikoh jarayonlari doimo xalqimizning kelajak avlodlari dunyoga kelishi uchun xizmat qiladigan yuksak milliy taraqqiyot mezonlariga yo'l ochadi. SHunday ekan, biz o'zbek xalqining qadimiylari va zamonaviy ma'naviy qadriyatlarining uyg'unligiga e'tiborimizni

qaratishimiz, ularning hayotbaxshligi, davomiyligi va uzluksizligini ta'minlashda hamisha ogohlik va hushyorlik bilan yoshlarni kamolot sari chorlashimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mardonova G. Nur to'la uy. Toshkent, "O'zbekiston", 2011. 3-bet.
2. To'lenov J. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent, "O'zbekiston", 1998. 18-19-bet.
3. Lutfullayeva N. O'zbek oilalarida tarbiyaviy omillarni takomillashtirish yo'llari. (Oilaning dolzarb muammolari. Ilmiy maqolalar to'plami) Toshkent, "Fan va texnologiya", 2009. 26-bet.
4. Abdujabborov A. "Oilani mustahkamlashning asosiy yo'nalishlari" // "Oila mustahkamligini ta'minlashning huquqiv-ma'naviy asoslari" Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Toshkent, "Sano-standart"2012. 56-bet.
5. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent, "O'qituvchi" 1994. 214-bet.
6. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent, "O'qituvchi" 1994. 219-bet.